



Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 11-sinf

21.10.2024

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Hindistonning Panjob shtatida quyidagi qaysi mahalliy dinga e'tiqod qiluvchilar ko'p yashaydi?
A) sintoizm B) buddizm C) sikxizm D) daosizm
2. Quyidagi qaysi shahar Buxoro viloyatining Turkmanistonga chegara qismida joylashgan?
A) Olot sh. B) Kogon sh. C) Buxoro sh. D) Vobkent sh.
3. Rasmda ko'rsatilgan xarita qaysi proyeksiya asosida tuzilgan?



- A) teng yonli B) konussimon C) silindrik D) azimutal
4. Shimoliy Afrikadagi qaysi mamlakatlar neft-gaz zaxiralariga ko'ra dunyoda yetakchi o'rinda turadi?
A) Marokash va Misr B) Jazoir va Liviya C) Chad va Jazoir D) Misr va Tunis
5. Quyidagi qaysi shahar shamol ko'p esadigan hududda joylashganligi sababli uning atrofida ihotazorlar barpo qilingan?
A) Qarshi B) Zarafshon C) Bekobod D) Olmaliq
6. Mamlakatimizdagi mehnatda band aholining 27,3%ni quyidagi qaysi sohada faoliyat yuritadi?
A) Qurilishda B) Qishloq xo'jaligida C) Sanoatda D) Sog'liqni saqlashda
7. Qoratepa tog'lari quyidagi qaysi tabiiy geografik okrugning shimolida joylashgan?
A) Qizilqum B) O'rta Zarafshon C) Qashqadaryo D) Mirzacho'l
8. Qaysi mamlakatning poytaxti uning janubi-g'arbidagi Hisor vodiysida joylashgan?
A) Qirg'iziston B) Mongoliya C) Afg'oniston D) Tojikiston
9. Stromboli vulqoni qaysi mamlakat hududida joylashgan?
A) Italiya B) Indoneziya C) Ispaniya D) Gretsya
10. Quyidagi qaysi geografik obyekt Qorabovur qirlaridan janubda joylashgan?
A) Dovutko'l B) Borsakelmas C) Qoplonqir D) Kassarma



Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi




Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 11-sinf

21.10.2024

2-qism: Har bir topshirig 1,5 balldan baholanadi

11. Rasmdagi alohida rang bilan ajratilgan hududlarda shakllangan tabiat zonasiga xos yog'in miqdori va tuproq turini aniqlang.




- A) 500-700 mm, podzol tuproq
B) 1000 mm, sariq-qo'ng'ir tuproq
C) 1000-1500 mm, qora tuproq
D) 3000 mm, qizil-sariq ferrolit tuproq

12. Italiyadagi Garda ko'li Yevropadagi eng chuqur ko'llardan biri bo'lib, uning tubiga qarab exolotdan yuborilgan tovush to'lqini 0,231 sekundda yetib borganligi ma'lum. Ko'lning chuqurligi qancha?

- A) 346,5 m B) 564,4 m C) 356,5 m D) 436,5 m

13. Quyidagi rasmda alohida rang bilan belgilangan hududlar qaysi tabiat zonasida joylashgan?



- A) Balandlik mintaqalari
B) Savanna va siyrak o'rmonlar
C) Qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar va butazorlar
D) Chalacho'l va cho'llar

14. 19° sharqiy uzunlik meridianida bir-biridan Almadi va Ras-Xafun burunlari oralig'iga teng masofada uzoqda joylashgan ikki nuqtadan shimoldagisi 55° shimoliy kenglikda joylashgan bo'lsa, ikkinchi shaharning koordinatasini aniqlang.

- A) $12,5^{\circ}$ j.k., 19° shq.u.
B) $21,5^{\circ}$ sh.k., 91° shq.u.
C) $15,2^{\circ}$ j.k., 19° shq.u.
D) $12,5^{\circ}$ sh.k., 19° shq.u.






Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 11-sinf

21.10.2024

15. Samolyot bosh meridiandan ekvator bo‘ylab g‘arbga qarab uchdi va 180 km masofani bosib o‘tdi. U quyidagi rasmda ko‘rsatilgan qaysi zonaga yetganligini aniqlang.




- A) D zonaga B) A zonaga C) B zonaga D) C zonaga

16. Chuqurligi 4850 metr bo‘lgan suv havzasining tubida harorat $+2^{\circ}\text{C}$ ekanligi ma’lum bo‘lsa, xuddi shu paytda suv yuzasida harorat necha $t^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘ladi?

- A) -11°C B) $+9^{\circ}\text{C}$ C) -9°C D) $+11^{\circ}\text{C}$

17. Quyidagi xarita fragmentida strelkalar bilan ko‘rsatilgan sayohatni amalga oshirgan dengizchi va u o‘rgangan okean nomini aniqlang.



- A) J.Kuk, Tinch okean
B) V.Bering, Atlantika okeani
C) A.Chirikov, Tinch okean
D) G.Shelioxov, Shimoliy Muz okeani

18. Pekin shahri $39^{\circ}55'$ shimoliy kenglikda joylashgan. Bu shaharda 22-dekabrda Quyoshning ufqdan balandligi necha gradusni tashkil etadi?

- A) $57^{\circ}25'$ B) $26^{\circ}38'$ C) $62^{\circ}83'$ D) $41^{\circ}36'$

19. Quyidagilar orasidan Farg‘ona tizmasidan boshlanmaydigan daryolar to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.
1) Kosonsoy; 2) Ko‘gart; 3) Isfara; 4) Norin; 5) Yassi; 6) Aravansoy; 7) Moylisuv; 8) Qorao‘ngur; 9) Oqbura; 10) Chodaksoy.

- A) 2, 5, 7, 9 B) 3, 5, 6, 9 C) 1, 4, 6, 8 D) 1, 3, 6, 10






Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 11-sinf

21.10.2024

20. Quyidagi xarita-sxemada 3 raqami bilan ko'rsatilgan daryo vodiysida aholi zichligi qancha?



- A) 120-240 kishi/kv.km
B) 480-1000 kishi/kv.km
C) 245-350 kishi/kv.km
D) 1400-1500 kishi/kv.km


3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Quyidagilar orasidan ham yirik shoxli qoramollar soniga, ham qo'y va echkilar soniga ko'ra respublikamizda bir xil o'rinda turuvchi viloyatlarni ajrating.

1. Andijon; 2. Buxoro; 3. Qoraqalpog'iston; 4. Toshkent; 5. Namangan; 6. Navoiy; 7. Qashqadaryo. 8. Surxondaryo; 9. Jizzax; 10. Sirdaryo; 11. Xorazm; 12. Farg'ona; 13. Samarqand.

- A) 8, 12 B) 2, 4 C) 5, 10 D) 7, 9

22. Rasmda qaysi raqam bilan Reyn daryosining mansabi ko'rsatilgan?



- A) 5 B) 11 C) 6 D) 12






Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 11-sinf

21.10.2024

23. Quyidagi qaysi rasm Katta Havza (yanvar oyida) uchun xos?



24. O'rta Osiyo daryolari va ularga qurilgan suv omborlar mos ravishda ko'rsatilgan javobni belgilang.

Nº	Daryolar		Suv omborlari
1	Ili	a	Qayroqqum
2	Norin	b	To'xtag'ul
3	Zarafshon	c	Qopchig'ay
4	Vaxsh	d	Tuyabo'g'iz
5	Sirdaryo	e	Norak
6	Ohangaron	f	Quyimozor

- A) 1-c, 2-b, 3-f, 4-e, 5-a, 6-d
B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c, 6-f
C) 1-c, 2-b, 3-d, 4-e, 5-a, 6-f
D) 1-c, 2-e, 3-f, 4-b, 5-a, 6-d

25. Olmaliq, Angren, Navoiy, Andijon, Farg'ona, Toshkent kabi shaharlarning havosi qaysi gazlar va zararli birikmalar bilan ifloslangan?

- A) uglerod, azod oksidlari, uglevodorod va qattiq birikmalar
B) oltingugurt qo'sh oksidi, uglerod oksidi, uglevodorod
C) vodorod ftorid, ammiak, azot oksidi, qattiq brikmalar
D) oltingugurt, azot oksidlari, ammiak, vodorod ftorid

26. Qor-yomg'ir va yerosti suvlaridan to'yinuvchi daryolarni aniqlang.

- A) G'uzordaryo, Sangzor, G'ovasoy
B) Zominsuv, Sheroboddaryo, To'sunsov
C) Isfayramsoy, So'x, Chirchiq
D) Qashqadaryo, G'uzordaryo, Oqdaryo

27. Paleozoy erasining kaledon tog' hosil bo'lish bosqichida qaysi tog'lar hosil bo'lgan?

- A) Baykalbo'yi, Tyanshan, Ural, Markaziy Yevropa
B) Oltoy, Tyanshan, Qozog'iston past tog'lari, Shimoliy Skandinaviya, Shimoliy Appalachi
C) And, Janubiy Appalachi, Chukotka, Kamchatka, Yangi Zelandiya
D) Yuqori Yana, Markaziy Kordilyera, Qozog'iston tog'lari, Alp-Himolay mintaqasidagi tog'lar

28. Quyidagi ma'lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasiga mos tushadigan to'g'ri javobni toping.


Mis			
II	nikel	a)	bronza
III	aluminiy	b)	latun
IV	qalayi	c)	duraluminiy
V	rux	d)	melxior






Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 11-sinf

21.10.2024



29. Berilgan ma'lumotlar asosida bir-biriga to'g'ri keladigan javobni belgilang.

	Tuproq	Chirindi miqdori (%)
a)	O'tloq-alluvial	x) 0,7-1,2
b)	Och bo'z	y) 1-1,5
c)	Sur tusli qo'ng'ir	z) 0,2-0,3



A) 1, 3, 5

B) 2, 3, 5


C) 2, 3, 4

D) 1, 2, 4

30. Quyidagi ma'lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan to'g'ri javobni toping.

I. AQSH, II. Kanada, III. Braziliya

- a) Shahar aholisining ulushi 80% dan yuqori.
- b) Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi.
- c) Yalpi sanoat mahsulotlarining hajmi bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.
- d) Jahondagi eng baland teleminora joylashgan.
- e) Chuchuk suv bilan yaxshi taminlangan davlatlar qatoriga kiradi.
- f) Yirik neft, temir, uran, nikel konlari mavjud.
- g) Go'sht ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha jahondagi yetakchi davlatlardan biri.



Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi

11-sinf Geografiya – 21.10.2024

KALITLAR:

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

- 1. C
- 2. A
- 3. D
- 4. B
- 5. C
- 6. B
- 7. C
- 8. D
- 9. A
- 10. C

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

- 11. D
- 12. A
- 13. C
- 14. A
- 15. A
- 16. D
- 17. C
- 18. B
- 19. D
- 20. B

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

- 21. C
- 22. A
- 23. D
- 24. A
- 25. D
- 26. B
- 27. B
- 28. A
- 29. B
- 30. A